



**Yashil iqtisodiyot sharoitida O'zbekiston agrosanoat tarmoqlarida
sifat menejmenti tizimlarini joriy etish istiqbollari**

Djumayev Asror Almamatovich

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
huzuridagi Texnik jihatdan tartibga solish agentligi

Menejment tizimlarini joriy etishni
muvofiqlashtirish bosh mutaxassisi

Tel: +998977549978

E-mail: asror.jumayev@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi yashil iqtisodiyot sharoitida O'zbekiston agrosanoat zanjirlarida sifat menejmenti tizimlarini joriy etishning iqtisodiy va ekologik ahamiyati yoritilgan. GlobalG.A.P., ISO 9001 va HACCP kabi xalqaro standartlarning joriy etilishi mahsulot sifati, eksport salohiyati va ekologik barqarorlikni oshirishda hal qiluvchi omil sifatida qaraladi. Xalqaro va mahalliy tajribalar tahlili asosida sifat menejmenti orqali raqobatbardoshlikni oshirish, resurslardan samarali foydalanish va chiqindisiz texnologiyalarni rivojlantirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Tezisda raqamli texnologiyalarning tutgan o'rni ham alohida tahlil qilingan.

Kalit so'zlari: sifat menejmenti, yashil iqtisodiyot, agrosanoat zanjiri, ekologik barqarorlik, GlobalG.A.P., eksport salohiyati, raqamli transformatsiya, agrotexnologiyalar, barqaror ishlab chiqarish, xalqaro standartlar

Аннотация. В данной тезисе рассматривается роль систем менеджмента качества в условиях зелёной экономики в агропромышленных цепочках Узбекистана. Подчёркивается важность внедрения международных стандартов, таких как GlobalG.A.P., ISO 9001 и HACCP, для повышения качества продукции, экспортного потенциала и экологической устойчивости. На основе анализа



международного и национального опыта предложены подходы к повышению конкурентоспособности и рациональному использованию ресурсов. Особое внимание уделено внедрению цифровых технологий в агросектор.

Ключевые слова: менеджмент качества, зелёная экономика, агропромышленная цепочка, экологическая устойчивость, GlobalG.A.P., экспорт, цифровизация, агротехнологии, устойчивое производство, международные стандарты

Kirish.

So‘nggi o‘n yillikda global miqyosda yashil iqtisodiyot konsepsiyasining ommalashuvi, ekologik barqarorlik va resurslardan samarali foydalanish masalalarini har bir sohada, xususan, agrosanoat zanjirlarida tubdan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Xalqaro miqyosda Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO), Birlashgan Millatlar Tashkilotining atrof-muhit dasturi (UNEP) kabi tuzilmalar ham yashil transformatsiyani qo‘llab-quvvatlovchi siyosiy va texnologik yo‘nalishlarni ishlab chiqmoqda. Ayniqsa, oziq-ovqat xavfsizligi, ekologik xavfsizlik va iqlim o‘zgarishlariga moslashuvda agrosanoat zanjirlarining barqarorligi strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Shu jihatdan, sifat menejmenti tizimi — ya’ni “ISO 9001”, “Global G.A.P.”, “HACCP”, “FSSC 22000” kabi xalqaro standartlar asosida faoliyat yuritish — nafaqat mahsulot sifatini oshirish, balki ekologik va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlovchi kuchli vosita sifatida qaralmoqda. Bunday yondashuvlar nafaqat ishlab chiqaruvchilarga, balki eksportyorlarga ham raqobatbardoshlikni ta’minlaydi. Xususan, Evropa Ittifoqi, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi bozorlarda sifat va ekologik me’yorlarga javob beradigan mahsulotlargagina kirish huquqi beriladi. Bu esa sifat menejmentining xalqaro miqyosdagi dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

O‘zbekiston kontekstida qaraydigan bo‘lsak, davlat tomonidan olib borilayotgan qator strategik qaror va chora-tadbirlar, xususan, Prezident qarorlarida qayd etilganidek, 2025–2027 yillarda meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash



hajmlarini oshirish bo'yicha ko'zda tutilgan ko'rsatkichlar sifat menejmentining joriy etilishini talab qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08 aprel 2025 yildagi "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eksport salohiyatini oshirish hamda qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-136-son qaroriga¹ muvofiq, agrosanoat zanjirlarida qayta ishlash darajasini 2027 yilga borib 16,2% ga, saqlash quvvatini esa 7,0% ga yetkazish rejalashtirilgan. Bu ko'rsatkichlarga erishishda sifat menejmenti tizimi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, mahalliy mahsulotlarni xalqaro bozorga olib chiqish uchun fitosanitariya, sertifikatlash, qadoqlash va logistika tizimlarining sifatli ishlashi zarur. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, sifat menejmenti nafaqat ichki resurslardan samarali foydalanish, balki tashqi bozorlarda muvaffaqiyatli raqobat qilish, investitsiyalarni jalb qilish va eksport hajmini oshirishga xizmat qiladi. O'zbekistonning 2025-yilga qadar 3,5 milliard AQSH dollar miqdoridagi eksport maqsadlariga erishishda sifat menejmenti tizimi markaziy omil hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi kooperatsiyalari, eksport salohiyatiga ega tarmoqlarda (masalan, meva-sabzavotchilik, dukkakli mahsulotlar, uzumchilik) sifat nazoratining kuchaytirilishi bilan nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki ekologik foyda ham olinadi. Xususan, organik mahsulot yetishtirish, suv resurslarini tejash texnologiyalarini joriy qilish, chiqindisiz texnologiyalarni ishlab chiqish orqali yashil iqtisodiyotga moslashuv imkoniyati vujudga keladi.

Yashil iqtisodiyot sharoitida agrosanoat zanjirlarida sifat menejmenti strategik va tizimli yondashuvlar orqali faqat mahsulot sifatini emas, balki butun ishlab chiqarish ekotizimining barqarorligini ta'minlovchi vositaga aylanmoqda. Shu bois, ilmiy tadqiqotlar, hukumat qarorlari va xalqaro tajriba asosida ishlab chiqiladigan strategiyalar dolzarb ahamiyat kasb etadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08 aprel 2025 yildagi "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eksport salohiyatini oshirish hamda qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-136-soni qaror. <https://www.lex.uz/uz/docs/-7469633>



So'nggi yillarda sifat menejmenti, yashil iqtisodiyot va agrosanoat zanjirlari integratsiyasi barqaror taraqqiyotning muhim yo'nalishiga aylangan. Ko'pgina tadqiqotlar ushbu sohalarining o'zaro bog'liqligini chuqur tahlil qilib, ilmiy asoslangan strategiyalarni ilgari surmoqda.

Rejebov va boshqalar (2023) tomonidan olib borilgan tadqiqotda sifat menejmenti va ekologik barqarorlik o'rtasidagi uzviy aloqa yoritilgan. Ular GlobalG.A.P. kabi xalqaro standartlarni joriy etish orqali mahsulot sifati bilan birga atrof-muhitni muhofaza qilish, chiqindilarni kamaytirish va yashil ishlab chiqarishga o'tish imkoniyati mavjudligini asoslab berishgan. Bu yondashuv O'zbekiston agrosektori uchun ayniqsa dolzarb, chunki ekologik xavfsizlik bugungi kunning eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir .

Kenzhebeyev (2024) o'z izlanishlarida yashil iqtisodiyot va agrosanoat strategiyalarini uyg'unlashtirish zaruratini asoslab beradi. Muallifga ko'ra, barqaror qishloq xo'jaligi tizimlarida resurslarni tejaydigan texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va sifat menejmenti tizimlarini birgalikda joriy etish orqali iqtisodiy va ekologik natijalarni optimallashtirish mumkin .

FAO (2022) hisobotida sifat menejmentining oziq-ovqat xavfsizligi va qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti bilan bog'liq jihatlari tahlil qilingan. Unda xalqaro standartlar asosida mahsulotlarni yetishtirish, saqlash va logistika jarayonlarini nazorat qilish orqali bozorlarga kirish imkoniyatlarini oshirish mumkinligi ko'rsatib o'tilgan. FAO tahlillari O'zbekistonda GlobalG.A.P., ISO 22000 va boshqa standartlar asosida klasterlar faoliyatini takomillashtirishga e'tibor qaratilishini tavsiya etadi.

Xusanov (2023) O'zbekiston agrosanoatida sifat menejmenti tizimining institutsional shakllanish jarayonini o'rganib, texnologik, huquqiy va me'yoriy asoslarning mustahkamlanishini asosiy shart sifatida qayd etgan. U sifat menejmenti faqat nazorat va sinov vositasi emas, balki biznes raqobatbardoshligini ta'minlovchi strategik instrument bo'lishi lozimligini ta'kidlagan. Bu fikrlar milliy eksport salohiyatini oshirishda sifat menejmentining o'rni katta ekanligini ko'rsatadi .



Umuman olganda, ilmiy adabiyotlarda sifat menejmenti orqali barqaror ishlab chiqarish, ekologik xavfsizlik va eksportboplikni ta'minlashga doir yondashuvlar tobora kuchaymoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, xalqaro standartlar va raqamli texnologiyalar sintezida tashkil etilgan menejment tizimlari raqobatbardoshlikni oshiradi. Shu jihatdan, O'zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida sifat menejmentini kuchaytirish strategiyasi ilmiy asoslangan, istiqbolli yo'nalishdir.

Yashil iqtisodiyot sharoitida O'zbekiston agrosanoat zanjirlarida sifat menejmenti tizimlarini joriy etish – nafaqat mahsulot sifatini oshirish, balki iqtisodiy va ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi strategik yo'nalishlardan biridir. O'tkazilgan tahlillar va mavjud ilmiy adabiyotlar asosida aniqlanishicha, sifat menejmenti tizimlari, ayniqsa GlobalG.A.P., HACCP va ISO 9001 kabi standartlar qishloq xo'jaligi faoliyatida texnologik intizomni mustahkamlash, iste'molchi ishonchini oshirish va eksport salohiyatini kengaytirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Sifat menejmenti tizimlarining agrosanoat zanjirlarida barqaror iqtisodiy va ekologik rivojlanishga ta'sirini ilmiy tahlil qilish natijasida quyidagi takliflar ishlab chiqildi. Ushbu takliflar O'zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida sifat menejmentini takomillashtirish va amaliyotga samarali joriy etishga qaratilgan.

Birinchidan, sifat menejmenti bo'yicha milliy qonunchilik bazasini xalqaro tajriba asosida takomillashtirish va uni GlobalG.A.P., HACCP, ISO 9001 kabi standartlarga muvofiqlashtirish zarur. Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi normativ hujjatlar yagona tizimga keltirilib, hududlar kesimida amaliy qo'llanilishini ta'minlash lozim. Shu bilan birga, davlat siyosatida sifat menejmenti elementlarini agrar islohotlar strategiyasiga integratsiyalash tavsiya etiladi.

Ikkinchidan, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish dolzarb masala hisoblanadi. Ayniqsa, izlanuvchanlik (traceability) tizimlari, raqamli audit vositalari, onlayn sertifikatlash platformalari sifatni nazorat qilish va xalqaro talablarni qondirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Agrosanoat subyektlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya



texnologiyalarini joriy etish orqali real vaqt rejimida monitoring tizimini ishlab chiqish va davlat organlari bilan integratsiyalashgan axborot oqimini shakllantirish zarur.

Uchinchidan, ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun ekologik sertifikatlash tizimini kengaytirish lozim. GlobalG.A.P., organik mahsulotlar bo'yicha xalqaro mezonlarga mos faoliyat yurituvchi subyektlar uchun imtiyozli kreditlar, soliq yengilliklari, texnik yordam dasturlari ishlab chiqilishi kerak. Bu orqali resurslardan foydalanishning ekologik barqarorligini ta'minlash, agrochiqindilarni qayta ishlash va agroekotizimlar xavfsizligini oshirish imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Trienekens, J. H. (2011). Agricultural value chains in developing countries: A framework for analysis. *International Food and Agribusiness Management Review*, 14(2), 51–82. <https://www.ifama.org/resources/Documents/v14i2/Trienekens.pdf>
2. Sautier, D., Vermeulen, H., Fok, M., & Biénabe, E. (2006). Case studies of agri-processing and contract agriculture in Africa. *Regoverning Markets*. <https://www.regoverningmarkets.org>
3. Zhang, Y., & Aramyan, L. (2009). A conceptual framework for supply chain governance in the agrifood sector. *China Agricultural Economic Review*, 1(2), 136–154. <https://doi.org/10.1108/17561370910927479>
4. Islamov, B. (2023). O'zbekistonda agrosanoat tarmoqlarida sifat menejment tizimlarining joriy etilishi: muammolar va imkoniyatlar. *Innovatsion iqtisodiyot va menejment*, (1), 45–53. <https://uzjournals.edu.uz>
5. Mardonov, A. K. (2024). Yashil iqtisodiyot sharoitida qishloq xo'jaligida ekologik standartlar joriy etishning iqtisodiy samaradorligi. *Ilmiy-amaliy agrar jurnali*, 2(1), 23–30.



6. FAO (2020). Developing sustainable food value chains – Guiding principles. Food and Agriculture Organization of the United Nations. <https://www.fao.org>
7. ISO (2023). *ISO 9001: Quality management systems – Requirements*. International Organization for Standardization. <https://www.iso.org/iso-9001-quality-management.html>
8. GlobalG.A.P. (2022). *Integrated Farm Assurance Standard*. <https://www.globalgap.org>
9. Kalandarov, K., & Rasulov, S. (2022). Sifat menejmentining eksport salohiyatiga ta'siri: O'zbekiston tajribasi. *Marketing va logistika*, 4(2), 17–25.
10. World Bank (2021). Uzbekistan: Agricultural Modernization Project – Environmental and Social Management Framework. <https://documents.worldbank.org>